O'zbekistonda majburiy sug'urta munosabatlarining umumiy huquqiy asoslari "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinib, majburiy sug'urtaning har bir alohida turi bo'yicha uni amalga oshirish shartlari va tartibi maxsus qonunchilik hujjatlarida belgilanadi (O'zbekiston Respublikasi, 2021). Amaldagi tartibga ko'ra, transport vositalari egalari, ish beruvchilar, tashuvchilar va boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan subyektlarning fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta obyektlari sifatida shakllantirilgan. Bunda sug'urta tariflari, bazaviy stavkalar, tuzatish koeffitsiyentlari, sug'urta summasi va tarifning tarkibiy qismlari ko'p hollarda davlat tomonidan normativ tartibda belgilanadi. Masalan, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha yillik bazaviy tarif stavkasi va faoliyat xavflilik darajasiga bog'liq koeffitsiyentlarning belgilanishi tarif siyosatida markazlashtirilgan yondashuv ustuvor ekanligini ko'rsatadi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2009).

Markazlashtirilgan tarif siyosati majburiy sug'urtaning ommaviyligi, ijtimoiy maqbulligi va sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga xizmat qilsa-da, iqtisodiy sharoitlarning tez o'zgarishi tariflarning aktuar jihatdan yetarilishini muntazam ravishda qayta baholashni talab etadi. Inflyatsiya sur'atlari, ish haqi va xizmatlar qiymatining oshishi, transport vositalari ehtiyot qismlari hamda tibbiy xizmatlar narxining o'zgarishi, hududlar kesimidagi zararlar chastotasi va og'irligining farqlanishi sug'urta to'lovlarning haqiqiy qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar tarif stavkalari ushbu omillar dinamikasiga mos ravishda qayta ko'rib chiqilmasa, sug'urta mukofotlari bilan qabul qilinayotgan majburiyatlar o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin. Bu esa, bir tomondan, sug'urtalovchilarning texnik zaxiralari va to'lov qobiliyatiga bosim o'tkazsa, ikkinchi tomondan, sug'urta summalari va kompensatsiya miqdorlarining real iqtisodiy qiymatini pasaytiradi.

O'zbekiston sug'urta bozorining so'nggi ko'rsatkichlari majburiy sug'urta segmentida sezilarli o'sish kuzatilayotganini ko'rsatadi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, mamlakat sug'urta bozorida jami sug'urta mukofotlari 13,46 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, majburiy sug'urta bo'yicha yig'ilgan mukofotlar 959,1 mlrd so'mga yetib, avvalgi yilga nisbatan 34,5 foizga oshgan. Shu davrda majburiy sug'urta bo'yicha to'lovlar 405,3 mlrd so'mni tashkil etib, 8,6 foizga ko'paygan (Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, 2026). Mukofotlar va to'lovlar o'sish sur'atlari o'rtasidagi bunday tafovut tariflarning samaradorligini faqat yalpi hajmlar orqali emas, balki zarar koeffitsiyenti, xarajatlar darajasi, sug'urta majburiyatlari, zaxiralar yetarilishi hamda alohida sug'urta turlari kesimida chuqur baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Sug'urta bozorini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatida tariflarning aktuar asoslanganligini kuchaytirish, sug'urta xizmatlari sifatini oshirish va raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, 2024-yildan boshlab sug'urta shartnomalari va polislarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali rasmiylashtirish tizimi joriy etildi. Shuningdek, vakolatli davlat organiga sug'urtalovchilar qo'llayotgan tariflarni, sug'urta mahsulotlari samaradorligini va qabul qilinayotgan tavakkalchiliklarga nisbatan zaxiralar yetarilishini tahlil qilish asosida aktuar hisob-kitoblarga tayangan tavsiyaviy minimal tariflarni belgilash vakolati berildi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2024). Mazkur institutsional o'zgarishlar majburiy sug'urta tariflarini shakllantirishda tarixiy ma'lumotlar, zararlar chastotasi, mijozning risk profili va hududiy ko'rsatkichlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan birga, amaldagi tarif siyosatida sug'urta turlari bo'yicha bazaviy stavkalarining iqtisodiy omillarga mos ravishda indeksatsiya qilinishi, tarif koeffitsiyentlarining risk darajasini qanchalik to'liq aks ettirishi, tarif tarkibida netto-stavka va sug'urtalovchi xarajatlari ulushining optimal nisbati kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Ayrim majburiy sug'urta turlarida tarifning netto qismi va faoliyat xarajatlari ulushi normativ ravishda qat'iy belgilanishi sug'urta to'lovlari uchun yetarli moliyaviy resurslar shakllanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, ushbu nisbatlarning real zarar ko'rsatkichlari bilan muvofiqi davriy aktuar monitoringni talab qiladi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2024).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Majburiy sug'urta bozorida tarif siyosatini shakllantirish sug'urta nazariyasi, aktuar matematika, risklarni boshqarish va davlat tomonidan tartibga solishning kesishgan nuqtasida joylashgan. Sug'urta tarifi odatda riskning kutilayotgan qiymati, zarar ehtimoli, operatsion xarajatlar va xavfsizlik ustamasini o'z ichiga oladi. Majburiy sug'urtada esa tarif nafaqat tijorat narxi, balki ijtimoiy himoya mexanizmining moliyaviy asosi hisoblanadi. Shu bois tariflarni belgilashda sug'urtalovchi barqarorligi bilan birga aholining to'lov qobiliyati va ijtimoiy manfaatlari ham hisobga olinadi.

Mahalliy adabiyotlarda X.M. Shennayev sug'urta tariflarini risklarni qayta taqsimlash tizimining muhim elementi sifatida ko'rib, tariflarning yetarli yoki ortiqcha belgilanishi bozor barqarorligiga ta'sir qilishini ta'kidlaydi (Shennayev, 2013). Q.M. Qo'ldoshev esa tarifni netto-stavka va yuklama qismlaridan iborat deb izohlab, risklarni bir xil baholash adolatsizlikka olib kelishini qayd etadi (Qo'ldoshev, 2021; 2022). Bu esa tariflarni hudud, faoliyat turi va sug'urta tarixiga qarab differensiallashtirish zarurligini ko'rsatadi.



Shennayev, Ochilov, Shirinov va Kenjayev tariflarni sug'urta zaxiralari, zararlar va moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq holda kompleks baholash zarurligini ta'kidlaydilar (2022). Umuman, mahalliy tadqiqotlar tariflarning nazariy asoslarini yoritgan bo'lsa-da, zararlarni ekonometrik modellashtirish, inflyatsiya ta'siri va risk koeffitsiyentlarini aniqlash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Xorijiy adabiyotlarda Bühlmann va Gisler ishonchlik nazariyasi orqali individual va umumiy ma'lumotlarni uyg'unlashtirishni taklif etadi (2005). Denuit va hammualiflar bonus-malus tizimi orqali tariflarni sug'urta tarixiga bog'lashni asoslaydi (2007). Kaas va boshqalar esa tarif tarkibida xavfsizlik ustamasining zarurligini ko'rsatadi (2008). Rothschild va Stiglitz esa axborot nomutanosibligi yagona tariflarda salbiy tanlovga olib kelishini ta'kidlaydi (1976).

Xorijiy tadqiqotlar tarif siyosati uch asosiy tamoyilga tayanishini ko'rsatadi: aktuar yetarlilik, riskga mos differensiallash va rag'batlantiruvchi mexanizmlar. Biroq ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va institutsional yondashuvlarga asoslangan bo'lib, ular majburiy sug'urtadagi tarif siyosatini iqtisodiy, aktuariy va normativ-huquqiy mexanizmlar majmui sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Tadqiqot doirasida tarif nafaqat sug'urta himoyasining qiymati sifatida, balki sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini ta'minlash, sug'urta zaxiralarni shakllantirish, fuqarolarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida ham tahlil qilinadi. Bunday yondashuv O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi, bunda majburiy sug'urta turlari bo'yicha tariflar asosan davlat tomonidan belgilanadi yoki tartibga solinadi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining qonunlari va qonunosti hujjatlari, Milliy istiqbolli loyihalar agentligining rasmiy statistik ma'lumotlari, sug'urta mukofotlari va to'lovlari dinamikasi haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Tahlil majburiy sug'urtaning asosiy ko'rsatkichlarini, jumladan, sug'urta mukofotlari hajmi, to'lovlar miqdori, zarar darajasi va majburiy segmentning milliy sug'urta bozori tuzilmasidagi o'rini qamrab oladi. Rasmiy ma'lumotlardan foydalanish natijalarning ishonchligini ta'minlaydi hamda amaldagi tariflarning haqiqiy sug'urta risklari darajasiga mosligini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida taqqoslash, tuzilmaviy va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Taqqoslash usuli tarif shakllantirishning amaldagi yondashuvlarini riskga yo'naltirilgan va aktuariy narx belgilash tamoyillari bilan solishtirish uchun ishlatildi. Tuzilmaviy tahlil sug'urta mukofotlari, to'lovlar va sug'urtalovchilar xarajatlari o'rtasidagi nisbatni aniqlashga imkon berdi, dinamik tahlil esa majburiy sug'urtaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, koeffitsiyent usuli qo'llanilib, unda to'lovlar darajasi sug'urta tovonlari summasining yig'ilgan sug'urta mukofotlariga nisbati sifatida hisoblab chiqildi. Ushbu ko'rsatkich tariflarning yetarilishini va sug'urta operatsiyalarining moliyaviy muvozanatini baholashda qo'llaniladi.

Tarif siyosati samaradorligini baholashda inflyatsiya jarayonlari, tiklash xarajatlari qiymatining o'zgarishi, tibbiy xizmatlar va ehtiyot qismlar narxining oshishi, shuningdek, sug'urta hodisalarining chastotasi va og'irligidagi farqlar hisobga olindi. Tarif stavkalarining real risk darajasiga mosligi alohida e'tiborga olindi, chunki makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarib borayotgan sharoitda uzoq vaqt davomida qat'iy tariflarni saqlab qolish sug'urta qoplamasining haqiqiy qiymatini pasaytirishi va sug'urtalovchilarning moliyaviy holatini yomonlashtirishi mumkin.

Metodologik yondashuv, shuningdek, hududiy, tarmoq va individual risk xususiyatlariga asoslangan differensial tariflarni joriy etish imkoniyatlarini baholashni ham nazarda tutadi. Istiqbolli yo'nalish sifatida bonus-malus tizimini qo'llash ko'rib chiqiladi, bunda sug'urta tarifi miqdori aniq sug'urtalanuvchining sug'urta hodisalari tarixiga bog'liq bo'ladi. Bunday mexanizm tariflarning iqtisodiy asoslanganligini oshirish, turli sug'urtalanuvchilar guruhlari o'rtasidagi o'zaro subsidiyalashni kamaytirish va majburiy sug'urtaning rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Natijalarni umumlashtirish miqdoriy va sifat tahlilini uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Miqdoriy baholash sug'urta ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganish va koeffitsiyentlarni hisoblash uchun qo'llaniladi, sifat tahlili esa normativ tartibga solish, institutsional cheklovlar va tariflar o'zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholashda ishlatiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston majburiy sug'urta bozorida tarif siyosatining samaradorligini baholash uchun sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, to'lovlar darajasi, majburiy segmentning jami sug'urta bozoridagi ulushi hamda inflyatsiya ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Majburiy sug'urta bo'yicha to'lovlar darajasi sug'urta



to'lovlarning yig'ilgan sug'urta mukofotlariga nisbati sifatida hisoblandi. Ushbu ko'rsatkich tariflarning aktuariy yetariligi to'liq ifodalama-da, sug'urta portfelining joriy moliyaviy yuklamasi va tarif siyosatidagi o'zgarishlarni baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda majburiy sug'urta bozorining asosiy tarif va moliyaviy ko'rsatkichlari, 2022-2025-yillar

Yillar	Majburiy sug'urta mukofotlari, mlrd so'm	Mukofotlar o'sishi, %	Majburiy sug'urta to'lovlari, mlrd so'm	To'lovlar o'sishi, %	To'lovlar darajasi, %	Majburiy segmentning jami mukofotlardagi ulushi, %	Yillik inflyatsiya, %
2022	518,0	-	242,1	-	46,7	8,31	12,3
2023	668,1	29,0	249,3	3,0	37,3	8,29	8,8
2024	712,9	6,7	373,3	49,7	52,4	7,30	9,8
2025	959,1	34,5	405,3	8,6	42,3	7,12	7,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari (NAPP, 2023; NAPP, 2025; NAPP, 2026; Milliy statistika qo'mitasi, 2026).


Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022–2025-yillarda majburiy sug'urta mukofotlari 518,0 mlrd so'mdan 959,1 mlrd so'mga yoki 85,1 foizga oshgan. Ushbu davrda mukofotlarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 22,8 foizni tashkil etgan. Sug'urta to'lovlari esa 242,1 mlrd so'mdan 405,3 mlrd so'mga ko'payib, umumiy o'sish 67,4 foizga, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 18,7 foizga teng bo'lgan. Demak, uzoq muddatli davrda mukofotlar to'lovlarga nisbatan tezroq o'sgan, biroq ushbu holat tariflarning avtomatik ravishda ortiqcha belgilanganligini anglatmaydi. Chunki sug'urta to'lovlarning yuzaga kelishi va hisob-kitob qilinishi o'rtasida vaqt tafovuti mavjud bo'lib, tarif yetariligi baholashda xabar qilingan, ammo hali to'lanmagan zararlar zaxirasi, operatsion xarajatlar va qayta sug'urta natijalari ham hisobga olinishi zarur.

Tahlil davrida to'lovlar darajasi sezilarli tebranishni namoyon etgan. Mazkur ko'rsatkich 2022-yildagi 46,7 foizdan 2023-yilda 37,3 foizgacha pasaygan bo'lsa, 2024-yilda 52,4 foizgacha ko'tarilgan. 2024-yilda majburiy sug'urta mukofotlari atigi 6,7 foizga oshgan bir sharoitda to'lovlar 49,7 foizga ko'paygan. Bu holat amaldagi tarif stavkalari zararlar chastotasi va og'irligidagi qisqa muddatli o'zgarishlarga yetarli darajada tez moslashmagan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. 2025-yilda mukofotlarning 34,5 foizga o'sishi va to'lovlarning 8,6 foizga ko'payishi natijasida to'lovlar darajasi 42,3 foizgacha pasaygan. Biroq, bir yillik pasayish tariflarning uzoq muddatli aktuariy muvozanatga erishganligini tasdiqlash uchun yetarli emas.

Majburiy sug'urta mukofotlarining nominal hajmi oshganiga qaramay, uning jami sug'urta bozoridagi ulushi 2022-yildagi 8,31 foizdan 2025-yilda 7,12 foizgacha qisqargan. Mazkur tendensiya majburiy sug'urta segmentining mutlaq qisqarishini emas, balki ixtiyoriy sug'urta turlarining nisbatan yuqori sur'atlarda rivojlanayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga, majburiy segment ulushining pasayishi uning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati kamayganligini anglatmaydi, chunki ushbu segment uchinchi shaxslar, xodimlar, yo'lovchilar va boshqa manfaatdor subyektlarning zararlarini kafolatli qoplashga xizmat qiladi.

2022–2025-yillarda yillik inflyatsiya 7,3–12,3 foiz oralig'ida shakllangan. Sug'urta hodisalarini bartaraf etish bilan bog'liq tibbiy xizmatlar, ta'mirlash, ehtiyot qismlar, ish haqi va boshqa xarajatlarning oshishi sug'urta to'lovlarning nominal qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli uzoq muddat davomida o'zgarmaydigan qat'iy tarif stavkalari real zarar qiymatidan ortda qolishi mumkin. Tariflarni faqat umumiy iste'mol narxlar indeksiga bog'lash ham yetarli emas, chunki sug'urta zararlarining inflyatsiyasi umumiy inflyatsiyadan farq qilishi mumkin. Tariflarni qayta ko'rib chiqishda transport vositalari ehtiyot qismlari, tibbiy xizmatlar, qurilish-ta'mirlash ishlari va ish haqi dinamikasini aks ettiruvchi maxsus zarar indekslaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2026-yilning birinchi choragida majburiy sug'urta mukofotlari 429,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 79,2 foizga oshgan. Sug'urta to'lovlari esa 19,9 foizga ko'payib, 116,1 mlrd so'mga yetgan. Natijada choraklik to'lovlar darajasi 40,4 foizdan 27,0 foizgacha pasaygan (NAPP, 2026). Ushbu natija sug'urta portfelining qisqa muddatli moliyaviy holati yaxshilanganini ko'rsatsa-da, sug'urta hodisalarining kechikib bildirilishi va to'lovlarning keyingi davrlarga o'tishi sababli choraklik ko'rsatkichlar asosida tariflarning to'liq yetariligi to'g'risida yakuniy xulosa chiqarish mumkin emas (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda majburiy sug'urta mukofotlari, to'lovlari va to'lovlar darajasining dinamikasi, 2022-2025-yillar

Rasmda majburiy sug'urta mukofotlari va to'lovlarning chiziqli trendi tasvirlangan. Mukofotlar trendi bo'yicha determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 = 0,930$), to'lovlar trendi bo'yicha esa ($R^2 = 0,890$) ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar vaqt omili va nominal sug'urta hajmlari o'rtasida nisbatan kuchli chiziqli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Biroq, kuzatuvlar sonining cheklanganligi sababli mazkur model prognozlash vositasi emas, balki dinamikani tavsiflovchi trend modeli sifatida talqin qilinishi lozim. Grafikda 2024-yilda to'lovlar darajasining keskin oshishi va 2025-yilda nisbatan barqarorlashishi tariflarni bir yillik natijalar emas, kamida uch-besh yillik zararlar statistikasi asosida kalibrlash zarurligini tasdiqlaydi.

Xalqaro bozor ko'rsatkichlari ham tarif siyosatida zararlar inflyatsiyasi va riskga asoslangan narx shakllantirishning ahamiyatini ko'rsatadi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda hisobot taqdim etgan mamlakatlarda mulkiy va javobgarlik sug'urtasi mukofotlari nominal hisobda o'rtacha 8,2 foizga, sug'urta to'lovlari esa 7,5 foizga oshgan. Sug'urta mukofotlarining to'lovlarga nisbatan tezroq o'sishi natijasida mamlakatlarning 72 foizida anderryayting rentabelligi yaxshilangan (OECD, 2025). O'zbekistonda 2025-yilda majburiy sug'urta mukofotlarining 34,5 foizga, to'lovlarning esa 8,6 foizga o'sishi xalqaro o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan ancha yuqori tafovutni namoyon etadi. Biroq, mazkur taqqoslash indikativ xususiyatga ega, chunki OECD ko'rsatkichi butun hayotdan tashqari sug'urta sektorini, O'zbekiston ko'rsatkichi esa faqat majburiy sug'urta segmentini qamrab oladi.

EIOPA tadqiqotlarida yuqori inflyatsiya, ayniqsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash kabi raqobat yuqori bo'lgan tarmoqlarda zararlar qiymatini va sug'urta zaxiralari ehtiyojni oshirishi qayd etiladi. Sug'urta mukofotlarini xarajatlar o'sishiga darhol moslashtirishning imkoni bo'lmaganda anderryayting rentabelligi pasayadi (EIOPA, 2023). Jahon banki metodologiyasiga ko'ra esa adolatli tarif kutilayotgan zararlar, shartnomani jalb qilish va boshqarish xarajatlari, foyda marjasi hamda investitsiya daromadini hisobga olishi kerak. Tarifni shakllantirishning boshlang'ich nuqtasi kutilayotgan zarar qiymatini sug'urtalangan obyektlar yoki shartnomalar soniga nisbatlash orqali sof risk mukofotini aniqlashdan iborat (Gönülal, 2010).

O'zbekistonda sug'urta shartnomalarini yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirish va sug'urta ma'lumotlarini markazlashtirish siyosati tariflarni riskga asoslangan tarzda shakllantirish uchun zarur institutsional asosni yaratmoqda. Mazkur axborot bazasi orqali hudud, sug'urta hodisalari tarixi, transport vositasining turi, haydovchining yoshi, faoliyatning xavflilik darajasi va zararlar chastotasi bo'yicha differensial koeffitsiyentlarni hisoblash imkoniyati kengayadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston majburiy sug'urta bozorida yagona va uzoq muddat o'zgarmaydigan tariflardan bosqichma-bosqich dinamik, aktuariy va riskga yo'naltirilgan tarif tizimiga o'tish zarurligini ko'rsatadi. Bazaviy tariflarning davriy indeksatsiyasi zararlar inflyatsiyasi bilan bog'lanishi, individual va hududiy risk



koefitsiyentlari yagona ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirilishi, bonus-malus tizimi esa sug'urta hodisalari tarixini hisobga olishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston majburiy sug'urta bozorida tarif siyosati hali to'liq riskga asoslangan va aktuariy jihatdan moslashuvchan tizimga aylantirilmaganini ko'rsatdi. 2022–2025-yillarda majburiy sug'urta mukofotlari 85,1 foizga, sug'urta to'lovlari esa 67,4 foizga oshgan. Shu bilan birga, to'lovlar darajasining 37,3 foizdan 52,4 foizgacha tebranishi tarif stavkalari zararlar chastotasi, inflyatsiya va xarajatlar o'zgarishiga bir xil darajada moslashmayotganini ko'rsatadi. Majburiy sug'urta segmentining jami bozor mukofotlaridagi ulushi pasaygan bo'lsa-da, uning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Amaldagi tarif tizimida bazaviy stavkalarni uzoq muddat o'zgartirmasdan qo'llash sug'urta qoplamasining real qiymati pasayishiga va sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli tariflarni umumiy inflyatsiya emas, balki tibbiy xizmatlar, ehtiyot qismlar, ta'mirlash ishlari va ish haqi qiymatidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi maxsus zarar indekslari asosida davriy qayta ko'rib chiqish zarur.

Tarif siyosatini takomillashtirish uchun yagona bazaviy stavkalarni risk darajasiga qarab differensiallashtirish, hududiy, tarqiqot va individual koefitsiyentlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta hodisalari tarixini hisobga oluvchi bonus-malus tizimini keng qo'llash tariflarning adolatligini oshiradi va ehtiyotkor xulq-atvorni rag'batlantiradi.

Tariflarning aktuariy yetariligi har yili sug'urta mukofotlari, to'lovlar, zaxiralar, operatsion xarajatlar va katta zararlar ehtimoli asosida baholanishi lozim. Yagona axborot tizimida shakllanayotgan ma'lumotlardan foydalanib, sug'urta risklarini statistik modellashtirish, zararlar chastotasi va og'irligini prognozlash hamda tavsiyaviy minimal tariflarni belgilash tizimini rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'RQ-730-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-5739117?ONDATE=17.04.2025%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-108-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6824178>
3. Nomozova, Q.I. (2025). Improvement of Capital Requirements in Insurance Companies of Uzbekistan. *European Science Review*, № 3–4, 38–42.
4. Ergasheva, F.Sh. (2025). Оптимизация капитальных требований страховых компаний в Узбекистане. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* ilmiy elektron jurnali, № 3, 89–95.
5. Qo'ldoshev, Q.M. (2022). *Sug'urta nazariyasi*. Darslik. Toshkent: Yangi Nashr.
6. Bühlmann, H., & Gisler, A. (2005). *A Course in Credibility Theory and Its Applications*. Berlin: Springer.
7. Denuit, M., Maréchal, X., Pitrebois, S., & Walhin, J.-F. (2007). *Actuarial Modelling of Claim Counts: Risk Classification, Credibility and Bonus-Malus Systems*. Chichester: John Wiley & Sons.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>